



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, web-sayt: www.edu.uz



2024-yil 2-oktabr
02/10-2643/1-son

**Oliy ta'lif muassasalari
rektorlari va direktorlariga**
(ro'yxat bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlari shaffof, adolatli o'tkazish maqsadida respublikaning yetakchi oliy ta'lif muassasalari takliflarini inobatga olgan holda 2024/2025 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalarning natijalarini **baholash mezonlari** belgilandi (1-3-ilova).

Shu munosabat bilan, oliy ta'lif muassasalari **1-3-ilovada keltirilgan baholash mezonlari bo'yicha** tanlovlarning oliy ta'lif muassasasi bosqichida g'olib deb topilgan nomzod talabalarni **xabardor qilish** hamda nomzod talabalarning hujjatlarini ushbu baholash mezonlariga **qat'iy rioya etgan holda 2024-yilning 10-oktabriga qadar** stipendiya.edu.uz elektron tizimiga yuklanishini ta'minlashingiz so'raladi.

Ilova: 3 bet.

**Vazirning birinchi
o'rinnbosari**



Sh. Daliyev

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan
magistratura mutaxassisligida tahsil olayotgan talabgorlarning natijalarini
baholash mezonlari**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Qo‘yiladigan ball	Izoh
1.	Ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va b.)	40 ballgacha	Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 4 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 10 ballgacha baholanadi
	Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari	10 ballgacha	Asosiy tanlangan 4 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi
2.	Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko‘rik tanlovlari g‘olibligi, patent, ixtiolar va b.)	20 ballgacha	Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi
3.	Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan O‘zbekiston tarixi, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari	30 ballgacha	To‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballga proporsional ravishda hisoblanadi

Izoh.

1. Quyidagilarga:

ilmiy ishlari, yutuqlari, natijalarning aynan talabaning muayyan ta’lim bosqichi davrida erishilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta’lim yo‘nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

2. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan bo‘lsa, sovrindor bo‘lgan sanadan keyingi davrida erishgan natijalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga
hujjat topshirgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan
talabgorlarning erishgan natijalarini baholash mezonlari**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Qo‘yiladigan ball	Izoh
1.	Ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va b.)	30 ballgacha	Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 2 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 15 ballgacha baholanadi
	Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari	10 ballgacha	Asosiy tanlangan 2 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi
2.	Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko‘rik tanlovlari g‘olibligi, patent, ixtiolar va b.)	20 ballgacha	Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi
3.	Til bilish sertifikati (Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi xorijiy til bo‘lgan taqdirda boshqa xorijiy tilni bilish sertifikati talab etiladi)	10 ballgacha	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son, 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son qo‘shma qarori (ro‘yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) ilovasi bilan tasdiqlangan milliy va xalqaro sertifikatlar inobatga olinadi. B1 darajasidan past darajalar hamda amal qilish muddati o‘tgan sertifikatlar inobatga olinmaydi
4.	Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan O‘zbekiston tarixi, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari	30 ballgacha	To‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballga proporsional ravishda hisoblanadi

Izoh.

1. Quyidagilarga:

ilmiy ishlari, yutuqlar, natijalarning aynan talabaning muayyan ta’lim bosqichi davrida erishilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta’lim yo‘nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

2. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan bo‘lsa, sovrindor bo‘lgan sanadan keyingi davrida erishgan natijalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.

**O'zbekiston Respublikasi nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan
bakalavriat ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabgorlarning erishgan
natijalarini baholash mezonlari**

T/r	Ko'rsatkichlar	Qo'yiladigan ball	Izoh
1.	Ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va b.)	30 ballgacha	Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 2 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 15 ballgacha baholanadi
	Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari	10 ballgacha	Asosiy tanlangan 2 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi
2.	Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko'rik tanlovlari g'olibligi, patent, ixtiolar va b.)	30 ballgacha	Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi
3.	Til bilish sertifikati (Bakalavriat ta'lif yo'nalishi xorijiy til bo'lgan taqdirda boshqa xorijiy tilni bilish sertifikati talab etiladi)	10 ballgacha	Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son, 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son qo'shma qarori (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) ilovasi bilan tasdiqlangan milliy va xalqaro sertifikatlar inobatga olinadi. B1 darajasidan past darajalar hamda amal qilish muddati o'tgan sertifikatlar inobatga olinmaydi
4.	Reyting bahosi	20 ballgacha	Reyting bahosi ballga proporsional ravishda hisoblanadi

Izoh.

1. Quyidagilarga:

ilmiy ishlari, yutuqlar, natjalarning aynan talabaning muayyan ta'lif bosqichi davrida erishilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natjalarning talabgor tahsil olayotgan ta'lif yo'nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

2. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo'lgan bo'lsa, sovrindor bo'lgan sanadan keyingi davrida erishgan natjalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.